



INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLAR

Irgasheva Nasiba Dadajanovna

Andijon mashinasozlik institute O'zbek tili

va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

nasibairgasheva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili darslarida dars o'tish usullari haqidadir. Maqolada nutqning grammatik, leksik va fonetik komponentlari xaqida so'z yuritilgan. Yana maqolada og'zaki nutqni rivojlantirish usullari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: til, nutq, uslub, texnologiya, ko'nikma, malaka.

Аннотация: Эта статья о методах преподавания на уроках английского языка. В статье говорится о грамматическом, лексическом и фонетическом компонентах речи. Также в статье предложены методы развития устной речи.

Ключевые слова: язык, дискурс, стиль, технология, умение, компетентность.

Abstract: This article is about teaching methods in English classes. The article talks about the grammatical, lexical and phonetic components of speech. The article also suggests methods for developing oral speech.

Key words: language, discourse, style, technology, skill, competence.



Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim o'ziga hos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu uziga hoslik eng avvalo ta'lim-tarbiya mazmunini milliy lashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z moxiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar bo'ldik. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshishni, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan ham foydalanishimizni taqozo etadi. Eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun fikrimizga biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirilishi mumkin.

Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklar bir talay. Ularni bilish chet tili o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan. Chet tili o'qitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi. Maktab sharoitida o'quvchilarning tinglab tushunish sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar. Ma'nosi har – xil, tovush shakli esa o'xshash so'zlarni (omofonlarni) yoki chet tili fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe'l bir qarashda tanishga o'xshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqashda hiyla qiyinchilik tug'diradi.
2. Mazmunga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiy g'oyaga taaluqli qiyinchiliklar mavjuddir.
3. Nutqiy idrok qilishning shart – sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audio matnning murakabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga



audiodomatnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozdagı o'zıga xoslik kabilar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy.

4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jummalarni eshitishi xotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. Tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar. Ularni lisoniy – leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar, ko'p ma'nolilik (polisemiya) turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo'q xodisalar yoki fonetik tarafdı so'zning yozuvda va talaffuzda keskin tavafuti, urg'u va ohangning o'xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo'ldi.

6. Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar. Audiomatnning tuzilishi (kompozitsion – mazmunıy tuzilishi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita daxli bor. Gapning yoki satr boshining bir – biriga mantiqan yopishishi, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator o'xshash kompozitsion – mazmunıy holatlar audiomatnning tushunilishi darajasini belgilovchi omillardir.

O'quvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi.

Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish (neytrallash) yo'li bilan ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qitishning eng moqbul (optimal) metodikasini ishlab chiqarishga muvofaq bo'linadi.

Til o'rganishda yoki umuman hayotda voqea bo'ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir – biri bilan bog'liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchiliklarni oldindan aniqlash,



uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi turli xatolar va ko'zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning o'zgalar nutqini idrok etib, uning mazmunini faximlay olishlaridan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Og'zaki nutqni o'rgatish o'rta maktabda chet tili o'qitishning asosiy amaliy maqsadlaridan biridir. O'rta maktabning bitiruvchilar chet tili da og'zaki axborot bera olishlari va suxbatlasha olishlari, o'rganilgan tematikaga bog'lik bo'lgan chet tilidan nutkni eshitib tushunishlari kerak. Birinchi navbatda og'zaki nutkni o'rganishning birligi muammosini eslatib utish lozim bo'ladi.

Avvallari, leksik va grammatik elementlar, og'zaki nutk materialı sifatida aloxida olib qaralgan bo'lsa endilikda, xozirgi tilshunoslik yutuklariga asoslanib, nutkning grammatik, leksik va fonetik komponentlari birligidan iborat kompleks birliklar xakidagi masalani kuyish imkoniyati tugildi. So'ngra shunday kompleks birliklarini bilib olishga qaratilgan tayyorlov mashklari, bu mashklarning turlari, ularning og'zaki nutkni o'kitishi u mumiy sistemasidagi salmog'i kabi masalalar. Nutk situaqiyasida o'rganilgan til materialidan foydalanish malakalarini o'stirishni ta'minlovchi nutk mashklari xakidagi masala yanada murakkabrokdir. Darsda tabiiy nutk muammosi muxitni yaratishga intilish dialogik va monologik og'zaki nutk muammosini bir - biridan ajratib ko'yishga, shuningdek o'qitishni va og'zaki nutkning boshka bir tomoni suxbatdoshni nutkini maxsus topshirish sifatida idrok etishni aloxida ajratishga olib boradi.

Og'zaki nutk ma'lum sharoitlarda yuz beradi va bu sharoitlar nutk xususiyatiga ta'sir etadi. Bu sharoitlar tildan tashqari / ekstralingvistik tartibdadir. Ularga nutk faoliyati sodir bo'ladigan vaziyat, muxit, so'zlovchining yoshi va o'sishi darajasi, suxbat mavzusi, tinglovchining nutkini idrok etishga diqqat berish, mimika, imo-ishoralari va boshkalar kiradi. Bu omillarning barchasi avvalo dialogik nutkda, ma'lum darajada monologik nutkda



xam faol rol uynaydi. Ogʻzaki nutʻi uslubiga suzlovchining tashkaridan bulgan, xar xil taʻsirlanishlyariga nisbatan turlicha munosabatning ifodalovchi, kirish suzlar va undama kabilarning kullash xosdir masalan: oh, how glad I am to see you! Ogʻzaki nutk uslubi yozma nutk uslubidan ifodaning ixchamligi yoki kupincha aytiladiganidek « situativligi » bilan fark kiladi. Bu ogʻzaki muomala jarayonida kup narsa ravshanlashadi. Bu ogʻzaki muomala jarayonida suzlovchilar turgan bektiv. Ogʻzaki nutʻi metodik tushunchasi ʻyamroviga (1) fikr bayon etish jarayoni (2) aytish (3) ogʻzaki muloqat, (4) fikr isxori natijasini kiritish mumkin. Oʻquvchilarga chet tilda gapirishni oʻrgatish orqali amaliy maʼisad sanaladi, yani taʻlimning dastlabki bir necha (taxminan uch xil) davomida ular gapirish va tinglab tushunishni ogʻzaki nutkni urganishadi.

Ingliz tilida ish xarakatlarni feʻl bilan ifodalaymiz. Ingliz tilida mustaqil va yordamchi feʻllar mavjud. Ingliz tili oʻrganuvchi albatta yordamchi fellarni bilishi zarur. Yordamchi feʻllardan biri to have feʻlidir. To have feʻli mustaqil feʻl sifatida oʻzbek tiliga bor boʻlmoq, ega boʻlmoq deb tarjima qilinadi. Uning ikki xil shakli bor: (Simple Present) – have/has. Have barcha shaxslar uchun 3-shaxs birlik uchun esa has, oʻtgan zamon uchun (Simple Past) – had, kelasi zamon uchun (Simple Future) – shall have, will have.

Darsning sifati va samaradorligi koʻp sahifali tuzilgan dars rejasiga bogʻliq boʻlmaydi. Rejada maqsadlar amalga oshiriladigan ishlar, kim, nimani va qachon amalga oshirish, har bir xatti-harakatlar vaqti soniyalarga boʻlingan boʻlsada, darsga tayyorlanishga qancha mehnat va vaqt sarflansa ham darsdan qoniqish, koʻzlangan maqsadga erishmaslik ham mumkin. Baʼzan puxta (sinchiklab) ishlangan dars rejasi ostin-ustun boʻlib ketishi, oʻqituvchi xuddi boʻsh oʻquv xonasida dars berganga oʻxshab qolishi mumkin.

Dars jarayoni oʻta murakkab boʻlib, oʻqituvchi juda koʻp pedagogik omillarni xisobga olishi kerak: dars kunning qaysi qismida oʻtadi, oʻquvchining miyasi charchamagan dastlabki soatlardami yoki oxirgi soatlardami: mavzu mazmunining murakkabligi qayday;



ushbu mavzuni o'quvchilar mustaqil bilish faoliyatlarini shakllantirishdagi roli va hokazo. Shu sababli o'qituvchi oldida doimo quyidagi muammolar turishi lozim.

1. Nima sababdan dars har xil o'tadi?
2. Nima sababdan darslar natijalari har xil?
3. Nima sababdan muayyan dars bir o'quv guruhida a'lo darajada o'tadi va boshqa guruhda shu darsning o'zi barbod bo'ladi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchraydi?

Hatto, o'qituvchining o'zi har xil darslarida o'zini boshqacha tutishi mumkin, ular tanib bo'lmaydigan, xudi boshqa odamlarga o'xshab qolishadilar. Dars - bu ijodkorlik, lekin ijodkorlik faqat o'qituvchi uchun emas, balki avvalo bor o'quvchi uchun ham ijodkorlikdir. O'quvchini darsda faol qatnashmasligi darsning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi.

O'qituvchi darsda o'quvchilar hamkorligisiz qanchalik mehnat qilmasin, u darsda yakkalanib qolgan holda o'ziga o'zi dars o'tadi. Dars har bir o'quvchini ijodkorga aylantirish, ularni darsda faol bo'lishga, qatnashishga, doimo fikrlari bayon etishga tayyorliklari - o'qituvchining pedagogik mahoratini belgilaydi.

Bunday o'qituvchi o'quvchini bilim olishga qiziqтира olishi, undagi yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro'yobga chiqarishi, buning uchun ko'ngliga yo'l topish lozim. Avval qiziqtirish, so'ngra o'rgatish lozim. O'qituvchining fikri va so'zi o'quvchilarni yetaklashi, ularni o'ylash, mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va har gal yangidan-yangi qonun va qoidalarni faol ochishga imkoniyat yaratishi kerak. Buning uchun o'qituvchi faqat dars mavzusini har xilda qiziqarli ma'lumolar bilan boyitishi, o'quvchilarni fikrlashi uchun muammoli vaziyatlar hosil qilishi, ularda o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish lozim.



Darsning muvaffaqiyatli va sifati o'quv guruhini muayyan mavzuni o'rganishga moil qilish, ularni yangi mavzuni qabul qilishga tayyorlanish diqqatni jalb qilishga juda bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga tayyorlash kerak.

Agar o'quvchi gap nima haqida borayotganini tushunmasa bilim olishga bo'lgan munosabati va qiziqishi tezda so'nadi. Bizningcha mustahkam bilim bo'lishi uchun har bir darsda o'quvchilar bilan o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazilishi lozim va shu yo'l bilan o'quvchilar bilimini mustahkamlab olish mumkin.

Ma'lum bo'lgan materialdan noma'lumga o'tish ko'prigini qo'yish uchun o'quvchilarga mazkur fan boshqa fanlar bo'yicha o'tilgan mavzularga qaytib kelish uchun o'quvchilarga uyga vazifa berilishi lozim. O'qituvchining mahorati kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini o'z vaqtida aniqlab, olishdan iborat. O'quvchilarga nimani o'rganayotganlarini fahmlab olishlariga, nazariy bilimlarini amalda qo'llashlariga imkoniyat yaratish va o'rgatish lozim.

Darsni shunday jihozlash kerakki, o'quvchilar o'z qo'llari, aqli, idroki bilan har xil sxema, tarqatma materiallar, o'yinlar, masala va misollardan foydalangan holda mustaqil ishlashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

O'quvchi bilimlarni yutib oluvchi naxang emas, balki-mash'aldir, uni yoqish, alanga oldirish lozim va shu alangani uzluksiz ushlab turishi lozim. O'qituvchi shunday bo'lishi kerakki-o'quvchilarga bilimlar asosini berish bilim olishga bo'lgan qiziqishini alanga oldirish, bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iborat. Shunda o'quvchi erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmay, kelajakka umid bilan qaraydigan bo'ladi va yoshlikda yoqilgan mash'al bolaning butun hayoti davomida yonib turadi.

O'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini faraz va gumonlarini hamda takliflarini aytishga qo'rqqanliklari kerak. Agar bu ishni bilimi past o'quvchi ham bajarishga jur'at etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va ularni dars jarayonida bunga jalb etish lozim. Har doim



zehnli va ziyrak o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazaverish maqsadga muvofiq emas, shunday qilish kerakki, eng uyatchang va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham o'z fikri va mulohazalarini erkin so'zlab bersin. Savol-javob do'stona olib borilishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarda mavjud bo'lgan fanlardan qo'rqish, o'z kuchiga ishonmaslik, hissiyotlarini boshkara olmay o'zini yo'qotish, befarklik alotlaridan kutkarishlari kerak va ularda o'z imkoniyatlari mavjudligiga muntazam ravishda ishonch tug'dirib borishi lozim. O'qituvchi dars mavzusini bayon etib hamma birgalikda bir fikrga kelishgan bo'lsa, mavzuning mohiyati ochilgan bo'lsa, dars nihoyasida befarq o'quvchilar qolmaydi. O'quvchilar bilim olishga qiziqib, yana ilgari tomon harakat qiladi natijada pedagogik jarayonda ilgari tomon harakat qiladi natijada pedagogik jarayonda bo'lsa, o'z-o'zini boshqarish, xamkorlik usuli samarali bo'ladi.

O'qish va yozuv o'qitish vositalari bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda o'qish va tinglab tushunmaydigan makryini egallaganida, gapirish uqitish vositasiga aylanadi. Demak gapirish 3 vazifani o'taydi: aloqa vositasi, o'qitish vositasi va o'kitishning amaliy maqsadi.

Chet tilda gapirish 3 qismdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastavval gapirishga moyillik bulishi takazo etiladi. Ushbu til vositasida fikr aytish extiyoji tug'iladi. Nutqiy xarakatni bajarishga moyil paydo bulsa, biror axborot berish,savolga javob qaytarish yoki nonutqiy xarakatni ijro qilishga kirishiladi.

Fikrning izhor qismida esa, analiz-sintez amallari ishga tushadi.Buning uchun xotirada to'lish xizmat qiladi. Paradimatik va sintomatik bog'lanish mavjud. Paradigmatika va sitokmatik bog'lanish alokada ichki bog'lanishlar so'zlarning turli belgilariga binoan tayedoslanishi ko'zda tutiladi. Aytilishi bir-xil, yozilishida farq qiladi (See-sea,two - too);ma'nosi yaqin (lig-large| 3Xar xil ma'noli (ga -come,Lere,tlere) gapirishni o'rganishda sintagmatik alokdlarni axamiyati ulkan bulib, bunda suzning turli birikmalar kullanishi ko'zda tutiladi.



Gapiruvchi xotirada tayyor turgan soʻzni yoki gramatik birlikni tanlaydi odatda ona tili xodisalari xotirada tayyor turadi. Interferenqiya paydo buladi.

3-qism ijro etish; fikrni bayon etish, talaffuz etilish, yani tashqi nutqda uni ifodalashdan iborat. Fikrni ogʻzaki 2 shaklda yani bogʻlanma (monolog) nutq va suxbat tarzida (dialog) ifodalash mumkin.

Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qoʻllash natijasida oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va toʻgʻri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar oʻquvchida bilimga ishtiyoq uygʻotadi.

Oʻquvchi darslarga puxta hozirlik koʻrishga intiladi. Bu esa oʻquvchilarni taʼlim jarayonining faol subʼyektlariga aylantiradi.

Chet tilda monolog va dialogni oʻrgatish oʻkuv dasturining asosiy talablaridandir. Muayyan nutqiy mexanizmlar tarkib topgandagina chet tilida gapirishni oʻrganishga erishiladi. Oʻquvchilarning yoshi oʻspirinlarning ilk davriga toʻgʻri kelib, birinchi qator psixologik xarakterlar bilan belgilanadi. Ulardagi yosh xususiyatlarning oʻziga xosligi 9-sinf dan boshlab tarkib topa boshlaydi. Usmirlik bu shaxsni tarkib topishi va kamolga yetishidir. Bu yoshda oʻsmirlarni tashqi muxitga munosabati va uz faoliyatiga baho berish xususiyatlari rivojlanadi.

Bunda yana bir narsaga eʼtibor berish kerak, ijtimoiy ishlash, butunlay erkinlik, nimani xoxlasa shuni qilaman degani ham emas. Ijodiy ishlash taʼlim-tarbiyaning ayrim masalalarini uslubiy yoki nazariy jihatdan belgilab berishni nazorat qilishni va boshqarishni inkor qila olmaydi. Buni esa shablonlashtirish bilan almashtirish kerak emas. Ijodiy ishlash uchun sharoit yaratish, bu jarayonni boshqarish va yoʻnaltirish muximdir. Kasbiy faoliyatlarni oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki har qanday faoliyat sanʼat yo texnologiya darajasida boʻlishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irgasheva, Nasiba Dadajonovna. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish." *Евразийский журнал академических исследований* 2.1 (2022): 21-24.
2. Dadajonovna, Irgasheva Nasiba. "Modern Methods of Teaching a Foreign Language." *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education* 2.6 (2023): 243-248.
3. Dadajonovna, Irgasheva Nasiba. "METAPHORICAL CHANGES IN ENGLISH." *Open Access Repository* 10.1 (2023): 145-147. (Ж, 1996 йил)
4. Сиддикова И.А. Методика преподавания английского языка. Т. 2002
5. Dadajonovna, Irgasheva Nasiba, and D. Tursunboyeva. "INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O'RGATISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH." *Н34 Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной* (2021): 279.
6. www.google.uz
7. www.learnenglish.com
8. <https://moluch.ru/archive/138/39058/>